



TOSHKENT VILOYATI HUDUDIIY SAYLOV KOMISSIYASI QARORI

Nurafshon shahri, Bobur ko'chasi, 1-uy

№ 53

2024-yil 24-sentabr

Markaziy saylov komissiyasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovida ishtirok etuvchi siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning saylov kampaniyasi davrida saylovoldi tashviqoti to'g'risida"gi qarori haqida

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 20-, 44- va 48-moddalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 20-sentabrdagi 1384-son qaroriga muvofiq, Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 20-sentabrdagi 1384-son qarori ijro uchun qabul qilinсин.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi bo'yicha deputatlikka nomzodlarning va siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti 2024-yil 22-sentabrdan boshlanishi e'lon qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilinсин.

3. Saylovoldi tashviqoti davrida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 2-iyuldagi 1345-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlarning va siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqotini olib borish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga qat'iy rioya etilsin.

4. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlari saylovi bo'yicha siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning saylovoldi tashviqotini olib borish uchun saylovoldi tashviqoti davrida:

Toshkent viloyat televideniyesi "Nurafshon TV" teleradiokanalida bepul ajratiladigan efir vaqti va hajmi 1-ilovalarga muvofiq;

"Toshkent haqiqati" va "Ташкентская правда" gazetasida bepul ajratiladigan nashr maydoni, vaqti va hajmi 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

5. Saylovoldi tashviqoti davrida siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning ommaviy axborot vositalarida chiqishlari siyosiy partiyalarga O'zbekiston Respublikasi

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovda ishtirok etishi uchun ijozat berilgan navbatini inobatga olib, quyidagi tartibda amalga oshirilsin:

birinchi - Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi;

ikkinchi - O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi;

uchinchi - O'zbekiston Ekologik partiyasi;

to'rtinchi - O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi;

beshinchi - O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi.

6. Ommaviy axborot vositalari saylovoldi tashviqoti davrida:

bepul ajratiladigan efir vaqti va nashr maydoni doirasida siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarga zarur shart-sharoitlar yaratsin;

yangiliklar dasturlarida va boshqa axborot materiallarida siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning saylovoldi tadbirlarini yoritishda tenglik prinsipiga rioya qilsin;

bepul ajratilgan efir vaqti va nashr maydoni doirasida efirga uzatilayotgan hamda chop etilayotgan saylovoldi tashviqoti materiallarini ular saylovoldi tashviqoti materiallari ekanligini qayd etib borsin.

7. Davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalarida siyosiy partiyalarga va deputatlikka nomzodlarga haq evaziga ham efir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi mumkinligi ma'lumot uchun qabul qilsin.

8. Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasining hududiy matbuot markazi Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi bilan birgalikda saylovoldi tashviqoti monitoringini tashkil etsin hamda monitoring natijalarini har kuni Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasiga taqdim etib borsin.

9. Toshkent viloyati Transport boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 41-moddasiga asosan 2024-yilning 25-sentabriga qadar:

deputatlikka nomzodlarning saylovoldi tashviqoti davrida deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olingan saylov okrugi doirasida davlat yo'lovchilar transportining barcha turlarida (bundan shahar yo'lovchi transporti, taksi va boshqa transport turlarining buyurtma yo'nalishlari mustasno) tekinga yurish;

saylov okrugidan tashqarida yashovchi deputatlikka nomzodlarning saylov okrugiga borish va yashash joyiga qaytish uchun ularda tekinga yurish huquqlarini ta'minlashga doir zarur choralarini ko'rsin.

10. Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi, Milliy gvardiya Toshkent viloyati boshqarmasi siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlar, shuningdek, ularning ishonchli vakillarining saylovoldi tashviqoti bilan bog'liq ommaviy tadbirlar o'tkazishda jamoat xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rsin.

11. Deputatlikka nomzodlar, ularning ishonchli vakillari, siyosiy partiyalar va ularning vakillari saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish uchun jihazlangan xonalarni bepul ajratish, zarur ma'lumot va axborot materiallari bilan ta'minlashni so'rab davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, jamoat birlashmalariga, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga murojaat qilishga haqli ekanligi ko'rsatib o'tilsin.

12. Tuman, shahar va okrug saylov komissiyalari tegishli hududlardagi prokuratura organlari bilan hamkorlikda saylovoldi tashviqotini o'tkazish shartlari va tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirsin.

13. Mazkur qaror tegishli manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilgan.

14. Ushbu qaror Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin hamda tegishli manfaatdor tashkilotlarga yuborilsin.

15. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi raisining o'rinbosari D.Shoismanov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hududiy
saylov komissiyasi raisi



U.Tuxtayev

Toshkent viloyati
hududiy saylov komissiyasining
2024-yil 24-sentabrdagi 53-son qaroriga
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar va siyosiy partiyalarga
saylov oldi tashviqoti davrida Toshkent viloyat televideniesi “Nurafshon TV” teleradiokanalida bepul ajratiladigan
EFIR VAQTI HAJMI**

T/r	Hafta kunlari	Telekanal nomi va efirga chiqish vaqti				
		“Nurafshon TV” teleradiokanali 1-hafta: 18:00-18:30	“Nurafshon TV” teleradiokanali 2-hafta: 18:00-18:30	“Nurafshon TV” teleradiokanali 3-hafta: 18:00-18:30	“Nurafshon TV” teleradiokanali 4-hafta: 18:00-18:30	“Nurafshon TV” teleradiokanali 5-hafta: 18:00-18:30
1.	Dushanba (23, 30, sentabr, 7, 14, 21 oktabr)	Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal- demokratik partiyasi	O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi	O‘zbekiston Ekologik partiyasi	O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi	O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi
2.	Seshanba (24 sentabr, 1, 8, 15, 22 oktabr)	O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi	O‘zbekiston Ekologik partiyasi	O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi	O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi	Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal- demokratik partiyasi
3.	Chorshanba (25 sentabr, 2, 9, 16, 23 oktabr)	O‘zbekiston Ekologik partiyasi	O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi	O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi	Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal- demokratik partiyasi	O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi
4.	Payshanba (26 sentabr, 3, 10, 17, 24 oktabr)	O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi	O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi	Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal- demokratik partiyasi	O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi	O‘zbekiston Ekologik partiyasi
5.	Juma (27 sentabr, 4, 11, 18, 25 oktabr)	O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi	Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal- demokratik partiyasi	O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi	O‘zbekiston Ekologik partiyasi	O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi

6.	Shanba (28 sentabr, 5, 12, 19 oktabr)	Partiyalararo debatlar (partiyalar o'rtasida o'zaro kelishuvga asosan)
----	---	---

2024-yil 23-sentyabr - 25 oktabr davrda har bir siyosiy partiya uchun Toshkent viloyat televideniesida umumiy 150 daqiqadan bepul efir vaqti beriladi.

Toshkent viloyat televideniesida efir vaqti siyosiy partiyalar bilan kelishilgan holda, eng ko'p auditoriya qamrab olinadigan vaqtlarda ("praym-taym"), har bir partiya uchun ketma-ketlik va vaqt tengligi ta'minlagan holda beriladi.

Siyosiy partiyalarga intensiv targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, partiyalar, ularning oliy organlari yig'ilishlari, maqsad va vazifalari bilan saylovchilarni keng tanishtirish maqsadida har haftada 30 daqiqadan vaqt ajratilmoqda.

Siyosiy partiyalarning har biriga videoroliklarni translyatsiya qilish uchun 2024-yil 23-sentyabr – 25-oktabr davrda har kuni televidenieda 2 daqiqadan (jami 66 daqiqa) efir vaqti ham beriladi.

Televidenie dasturida o'zgarishlar ro'y bersa, xabar tarqatuvchi barcha nomzodlar uchun teng shart-sharoitlarni saqlagan hamda siyosiy partiyalar bilan kelishgan holda saylovoldi tashviqot materiallarini efirga uzatish vaqtini boshqa vaqtga (kunga) ko'chirishi mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari Toshkent viloyati, tuman shahar Kengashlari deputatlari saylovlarida ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarga saylovoldi tashviqoti davrida “Toshkent haqiqati” va “Ташкентская правда” gazetasida bepul ajratiladigan
NASHR MAYDONI**

T/r	Hafta kunlari	Siyosiy partiyalar tomonidan taqdim etilgan saylovoldi tashviqoti materiallarini gazeta sahifasida joylashtirish ketma-ketligi	Anons uchun	Material uchun
1.	Chorshanba-shanba (25-28-sentyabr kunlari)	1. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 3. O‘zbekiston Ekologik partiyasi 4. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi 5. O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi	1-betning yuqori qismining o‘ng tomonida	2-3-sahifalar (har bir siyosiy partiya uchun 0,5 sahifadan)
2.	Chorshanba-shanba (2-5-oktyabr kunlari)	1. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 3. O‘zbekiston Ekologik partiyasi 4. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi 5. O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi	1-betning yuqori qismining o‘ng tomonida	2-3-sahifalar (har bir siyosiy partiya uchun 0,5 sahifadan)

3.	Chorshanba-shanba (9-12-oktyabr kunlari)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 3. O‘zbekiston Ekologik partiyasi 4. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi 5. O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 	1-betning yuqori qismining o‘ng tomonida	2-3-sahifalar (har bir siyosiy partiya uchun 0,5 sahifadan)
4.	Chorshanba-shanba (16-19-oktyabr kunlari)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 3. O‘zbekiston Ekologik partiyasi 4. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi 5. O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 	1-betning yuqori qismining o‘ng tomonida	2-3-sahifalar (har bir siyosiy partiya uchun 0,5 sahifadan)
5.	Chorshanba-shanba (23-25-oktyabr kunlari)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 3. O‘zbekiston Ekologik partiyasi 4. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi 5. O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 	1-betning yuqori qismining o‘ng tomonida	2-3-sahifalar (har bir siyosiy partiya uchun 0,5 sahifadan)
	“Ташкентская правда” (27-sentyabr-25-oktyabr kunlari, jami 5 ta son)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 3. O‘zbekiston Ekologik partiyasi 4. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi 5. O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 	1-betning yuqori qismining o‘ng tomonida	2-3-4-5-6-sahifalar (har bir siyosiy partiya uchun har bir sonda 1 sahifadan)

Saylovoldi tashviqoti materiallarini chop etish uchun gazetaning 3-4-sahifalari ajratilib, bu haqida birinchi sahifada qisqa anons beriladi.

Nashrga beriladigan materiallar tahririyatga kechi bilan haftaning dushanba va chorshanba kuniga qadar soat 12:00 ga qadar nashr qilinadigan tilda yozma ravishda beriladi.